



**YUNUS RAJABIY NOMIDAGI O'ZBEK MILLIY
MUSIQA SAN'ATI INSTITUTINING
BUYRUG'I**

Toshkent sh.

№ 47

«14» 06 2024 y

**2024-2025-o'quv yili qabul jarayonlarini yuqori saviyada
tashkil etish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga qabul qilish va davlat buyurtmasini joylashtirish tizimini takomillashtirish to'g'risidagi 2024-yil 24-may sanasidagi PF-81-son farmoni, Oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga qabul qilish va davlat buyurtmasini joylashtirish tizimini takomillashtirish bo'yicha davlat komissiyasining 2024-yil 29-maydagi №45-sonli bayoni ijrosini ta'minlash hamda 2024/2025-o'quv yili uchun qabul jarayonlarini yuqori saviyada tashkil etish maqsadida

BUYURAMAN:

1. Oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga qabul qilish va davlat buyurtmasini joylashtirish tizimini takomillashtirish bo'yicha davlat komissiyasining 2024-yil 29-maydagi №45-sonli bayoni ijro uchun qabul qilinsin.

2. 2024-2025-o'quv yili uchun institutning mavjud bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklariga talabalarni qabul qilish jarayoniga puxta tayyorgarlik ko'rish va uni yuqori saviyada tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi 1-ilovaga, 2024-2025-o'quv yili qabul komissiyasi tarkibi 2-ilovaga, Qabul komissiyasi texnik xodimlar tarkibi 3-ilovaga, Maslahat xonasi, Murojaatlar markazi (call-center) xodimlari tarkibi 4-ilovaga, Konsultatsiya xonalariga birlashtirilgan xodimlari tarkibi 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Qabul komissiyasi mas'ul kotibi (K.Komiljonov)ga:

- qabul hay'ati a'zolari va texnik xodimlarni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 20-iyundagi 393-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga talabalarni o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risida"gi Nizom bilan tanishtirish hamda unga to'liq amal qilinishini ta'minlash;

- qabul komissiyasi tasdiqlangan tarkibining har bir a'zosiga yuklatilgan vazifalarini talab darajasida bajarilishini ta'minlash;

- qabul jarayonlarini to'g'ri, shaffof, halol, adolatli tashkil etish hamda qabul jarayonlarida xato va kamchiliklarga yo'l qo'ymaslik yuzasidan zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- abituriyentlar haqida ma'lumotlar tayyorlash, ijodiy imtihonlar natijalarini rasmiylashtirish, jamlash va taqdim etishga mas'ul va ijrochi texnik xodimlarga yo'l qo'yiladigan xatoliklar oqibati va javobgarligi to'g'risida batafsil tushuncha va yo'riqnomalar berishni tashkil etish;

- qabul komissiyasi faoliyat ko'rsatadigan joylarni joriy yilning 25-iyuniga qadar qabulga oid me'yoriy hujjatlar, statistik ma'lumotlar, yangilangan kasbga yo'naltiruvchi targ'ibot-tashviqot lavhalari, fanlar bo'yicha dasturlar, maslahatlar jadvali, e'lonlar va boshqa zarur ma'lumotlar bilan jihozlash va internet saytlari hamda telegram kanallarida yoritish vazifalari yuklatilsin.

- abituriyentlar, ularning ota-onalari bilan bevosita muloqot qilgan holda ularda yuzaga kelgan turli savollar bo'yicha tushuntirish va maslahatlar berishni ko'zda tutib, institut qabul komissiyasi huzurida "Murojaatlar markazi (call-center)" hamda "Konsultatsiya" xonalari tashkil etish;

- "Murojaatlar markazi (call-center)" va "Konsultatsiya" xonalariga yuqori malakali, ko'p yillik tajribaga ega bo'lgan professor-o'qituvchilar va xodimlarni jalb etish;

- "Murojaatlar markazi (call-center)" va "Konsultatsiya" xonalariga internetga ulangan kompyuter, telefon aloqasi, qabulga oid me'yoriy hujjatlar, statistik ma'lumotlar, kasbga yo'naltiruvchi targ'ibot-tashviqot lavhalari, maslahatlar jadvali, e'lonlar va boshqa zaruriy ma'lumotlar bilan jihozlash;

- "Murojaatlar markazi (call-center)" va "Konsultatsiya xonalari" tashkil etilgan hudud hamda binoga eltuvchi yo'llarga tegishli ko'rsatkichlar o'rnatish;

- ommaviy axborot vositalari, jumladan veb-saytlar orqali Murojaatlar markazining faoliyati to'g'risida aholiga ma'lumot yetkazilishini ta'minlash;

- "Murojaatlar markazi (call-center)"ning telefon raqamini institutning rasmiy veb-saytida, institut qabul komissiyasi faoliyat olib borayotgan hududning ko'rinarli joylarida e'lon qilish;

- "Murojaatlar markazi (call-center)" telefonlarini ish vaqtida doimiy ishlab turishini ta'minlash;

- institut bakalavriat ta'lim yo'nalishlari hamda magistratura mutaxassisliklariga talabalarni o'qishga qabul qilish tartiblari to'g'risidagi nizomlarni ota-onalarga tushuntirish;

- kasbiy (ijodiy) imtihonlar o'tkazilishi belgilangan fanlar bo'yicha predmet komissiyalari raislarining ro'yxati idoraviy tasarrufiga qarab vazirlik (idora) bilan kelishilgan holda tasdiqlash uchun tayyorlash;

- kasbiy (ijodiy) imtihonlar o'tkaziladigan fanlar bo'yicha dastur va baholash mezonlarini ishlab chiqish;

- kasbiy (ijodiy) imtihonlar o'tkaziladigan fanlar dasturi, abituriyentlar bilimni baholash mezonlari, konsultatsiyalar va imtihonlar jadvalini qabul komissiyasi e'lonlarida yoritib borish vazifalari yuklatilsin.

4. Qabul komissiyasi mas'ul xodimlari (D.Aliyev, S.Abdupattoyev)larga:

- abituriyentlar va ularning ota-onalarini qabul qilish, ularning murojaatlarini o'rnatilgan tartibda ro'yxatga olish va ijrosi ustidan nazorat qilish, belgilangan muddatlarda javoblar yo'llash jarayoniga bo'lgan mas'uliyatini kuchaytirish;

- fuqarolarni qabul qilish joyi, kuni va soatlari aniq ko'rsatilgan holda ularni qabul qilishni ta'minlash vazifalari yuklatilsin;

- abituriyentlarni institutning ta'lim yo'nalishlari, ularda talabalarning bilim olishi, yashash va bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishlari uchun yaratilgan sharoitlar bilan tanishtirish maqsadida ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha ko'rgazmali axborot taxtalari tashkil etish;

- mazkur tadbirlarni ko'rgazmali targ'ibot va ommaviy-axborot vositalarida

keng yoritilishini yo'lga qo'yish vazifalari yuklatilsin.

5. Qabul komissiyasi mas'ul kotibi (K.Komiljonov), Institutning RTTM bo'lim boshlig'i (J.Abdujabborov) va Matbuot kotibi (Sh.Abduxoshimov)larga:

- abituriyentlar va ularning ota-onalari e'tiboriga havola etish uchun ta'lim yo'nalishlari, ta'lim shakli va tili bo'yicha qabul kvotalari, ijodiy imtihon topshiriladigan ta'lim yo'nalishlari to'g'risidagi ma'lumotlarni, yo'nalishlar kesimida topshirilgan hujjatlar soni, shu jumladan xalqaro va respublika tanlovlari, harbiy va boshqa imtiyozga ega bo'lgan, shuningdek, nogironligi bo'lgan abituriyentlar tomonidan topshirilgan hujjatlar haqidagi ma'lumotlari 2024-yil 26-iyun sanasidan boshlab har kuni Institutning uzmmmsi.uz elektron saytida e'lon qilinishi va yangilab borilishini ta'minlash vazifalari yuklatilsin.

6. Qabul komissiyasi mas'ul kotibi (K.Komiljonov), Bosh hisobchi (G.Mirsaidova) va Ishlar boshqarmasi boshlig'i (B.Bozorboyev)larga:

- institut hududi va qabul komissiyasi faoliyat ko'rsatayotgan hududlarda osoyishtalikni ta'minlash, begona shaxslarning paydo bo'lishiga va shubhali narsalar, xatti-harakatlarga yo'l qo'ymaslikni ta'minlash maqsadida huquq-tartibot tashkilotlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish;

- qabul komissiyasi ishini samarali tashkil etish uchun zarur bo'lgan ashyolar va kanselyariya mollari bilan muntazam ta'minlab borish vazifalari yuklatilsin.

7. Qabul komissiyasi mas'ul kotibi (K.Komiljonov) va Fakultet dakanatlariga: institut talabalarining kirish sinovlarida noqonuniy ishtirok etishining oldini olish maqsadida talabalarning hujjatlarini asossiz chiqarmaslik choralarini ko'rish;

- kasbiy (ijodiy) imtihonlar, hamda test sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tgan va rektor buyrug'i asosida 1-kursga qabul qilingan talabalarning hujjatlarini tekshirib, qabul qilib olish vazifalari yuklatilsin.

8. Institut qabul komissiyasining ish vaqti quyidagicha belgilansin.

- Dushanba-shanba kunlari - ertalab soat 9⁰⁰ dan 18⁰⁰ gacha;


- Tushlik -13⁰⁰ dan 14⁰⁰ gacha;

- Yakshanba dam olish kuni.

9. Ushbu buyruqni devonxona o'rnatilgan tartibda tegishli bo'limlarga yetkazsin.

10. Mazkur buyruq ijrosi nazoratini o'z zimnamda qoldiraman.

REKTOR



O.A.NAZARBEKOV

Yunus Rajabiy nomidagi
O'zbek milliy musiqa san'ati
instituti rektorining 2024-yil
" 14 " 06 dagi
" 47 " - sonli buyrug'iga
1-ilova

**Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati institutida
2024-2025-o'quv yili qabul jarayonlarini samarali tashkil etish bo'yicha
CHORA-TADBIRLAR
REJASI**

№	Chora-tadbirlar nomi	Bajarish muddati	Ma'sullar
1.	Qabul komissiyasining ish faoliyatini tashkil etish bo'yicha institut rektorining buyrug'i asosida qabul komissiyasi tarkibini rasmiylashtirish	15-iyungacha	K.Komiljonov
2.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to'g'risida"gi 2022-yil 15-iyundagi PQ-279-sonli qarori hamda Oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga qabul qilish va davlat buyurtmasini joylashtirish tizimini takomillashtirish bo'yicha davlat komissiyasining 2024-yil 29-maydagi №45-sonli bayoniga muvofiq davlat buyurtmasi parametrlari faqat davlat granti bo'yicha tasdiqlanishi, to'lov-kontrakt asosida qabul parametrlari Madaniyat vazirligi tomonidan Iqtisodiyot va moliya, Oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirliklari bilan kelishilgan holda tasdiqlanishi, kelishilgan holda tasdiqlangan kvotalarni institutning uzmmisi.uz rasmiy veb saytiga joylashtirish	Qabul jarayonida	J.Abdujabborov
3.	Targ'ibot tadbirlarida aholi tomonidan qonun hujjatlarini takomillashtirish bo'yicha bildirilgan takliflarni (mavjud bo'lsa) o'rganish, umumlashtirish va tegishli bo'limlarga kiritish (zarur hollarda, belgilangan tartibda ijtimoiy so'rovlar o'tkazish)	Qabul jarayonida	D.Aliyev
4.	Qabul komissiyasi a'zolarini me'yoriy hujjatlar bilan tanishtirish	20-iyungacha	K.Komiljonov
5.	Tashkiliy-tayyorgarlik ishlarini bajarish, qabul komissiyasi uchun alohida xonalar, telefon, tegishli jihozlar va idora anjomlarini ajratish	5-iyungacha	R.Sobirov
6.	Abituriyentlarning ota-onalari uchun institutdan tashqari hududda qulay sharoit yaratish	25-iyungacha	B.Bozorboyev
7.	Kasbiy (ijodiy) imtihonlarning shaffofligini ta'minlash uchun abituriyentlarning ijodiy imtihon topshiradigan xonalarini video kameralar bilan jihozlash	20-iyungacha	J.Abdujabborov M.Uchqunov

8.	Qabul komissiyasi ishini avtomatlashtirish bo'yicha Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan yaratilgan dasturini qo'llash	Qabul davomida	K.Komiljonov, J.Abdujabborov
9.	Kasbiy (ijodiy) imtihonlar o'tkazilishi belgilangan fanlar bo'yicha predmet komissiyalari raislari va apellatsiya komissiyalari raislarining ro'yxatini tasdiqlash	30-iyungacha	K.Komiljonov
10.	Tasdiqlangan Kasbiy (ijodiy) imtihonlar bo'yicha fanlardan dastur va baholash mezonlarini O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligiga hamda OTFIVga taqdim etish	20-iyungacha	K.Komiljonov
11.	Abituriyentlarning hujjatlarini o'rnatilgan tartib-qoida asosida rasmiylashtirish	Qabul davomida	K.Komiljonov va texnik xodimlar
12.	Abituriyentlarni kasbiy (ijodiy) imtihonlar yo'riqnomasi bilan tanishtirish	Qabul davomida	Qabul komissiyasi va mas'ul kotib muovnlari
13.	Tibbiy xizmatni tashkil etish	Qabul davomida	B.Bozorboyev
14.	Bilim va malakalarni baholash agentligi OTFIVga belgilangan tartib va muddatlarda ma'lumotlarni topshirish	Qabul davomida	K.Komiljonov F.Umarov
15.	Kasbiy (ijodiy) imtihonlarni to'g'ri va xolisona o'tkazib, natijalar qaydnomasini belgilangan tartibda to'g'ri rasmiylashtirish, ularni o'z vaqtida Bilim va malakalarni baholash agentligiga yetkazish	Belgilangan muddatlarda	K.Komiljonov F.Umarov
16.	Bilim va malakalarni baholash agantligi tomonidan berilgan ma'lumotlar va hujjatlarni kechiktirmay e'lonlar taxtasida aks ettirish	Qabul davomida	Qabul komissiyasi
17.	Bilim va malakalarni baholash agantligi tomonidan institutga yuborilgan test natijalarini abituriyentlar tanishishlari uchun e'lonlar taxtasiga osish	Qabul davomida	K.Komiljonov
18.	Apellatsiya komissiyasi ishini tashkil qilish va me'yoriy hujjatlar bilan ta'minlash	Qabul davomida	A.Zokirov
19.	Davlat qabul komissiyasi tomonidan Bilim va malakalarni baholash agantligi o'tkazgan test sinovlari natijasiga ko'ra belgilangan tartibda to'lov-shartnoma asosidagi qabulni tashkil qilish	Qabul davomida	K.Komiljonov va marketing xizmati boshlig'i
20.	Talabalar o'qishini ko'chirish va qayta tiklash ishlarini "Nizom" asosida olib borish	Qabul davomida	F.Umarov
21.	Qabul komissiyasi majlislarini o'tkazish	Qabul davomida	Qabul komissiyasi raisi
22.	Qabul komissiyasi faoliyatining hisoboti	Oktyabr	K.Komiljonov

Yunus Rajabiy nomidagi
O'zbek milliy musiqa san'ati
instituti rektorining 2024-yil
" 14 " 06 dagi
" 47 " - sonli buyrug'iga
2-ilova

Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti
2024-2025-o'quv yili qabul komissiyasi a'zolari
TARKIBI

№	F.I.SH	Lavozimi
1.	Nazarbekov Ozodbek Axmadovich	Institut rektori, qabul komissiyasi raisi
2.	Zokirov Azizjon Rayimjonovich	O'quv ishlari bo'yicha prorektor, qabul komissiyasi raisi o'rinbosari
3.	Komiljonov Kamolbek Ibrohimjon o'g'li	O'zbek milliy musiqa san'ati fakulteti o'quv ishlari bo'yicha dekan muovini, qabul komissiyasi mas'ul kotibi
4.	Umarov Faxriddin Kayumovich	Sirtqi bo'limi boshlig'i - Magistratura mutaxassisliklari qabuli hamda talabalarni o'qishini ko'chirish, qayta tiklash, ko'zi ojiz va xorijiy abituriyentlar, texnikum bitiruvchilari hamda ikkinchi oliy ta'lim qabuli bo'yicha mas'ul kotib o'rinbosari
5.	Yuldasheva Inobatjon Sodikovna	Institut yuristkonsulti - jamoat tartibini saqlash bo'yicha mas'ul
6.	Bozorboyev Baxtiyor Xamidovich	Ishlar boshqarmasi boshlig'i - Tashkiliy masalalar bo'yicha ishchi guruh rahbari va ota- onalar uchun sharoitlar yaratish bo'yicha mas'ul
7.	Baxodirova Manzuraxon Yuldashevna	Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring sektori mudiri, fuqarolar murojaati bo'yicha mas'ul
8.	Maxmudov Vosidjon Valijonovich	"Maqom cholg'u ijrochiligi" kafedrasida o'qituvchisi kasbiy (ijodiy) imtihonlarni tashkillashtirish (kunduzgi ta'lim yo'nalishi) bo'yicha mas'ul
9.	Abduxoshimov Shoxbozbek Xurshidbek o'g'li	OAV bilan ishlash bo'yicha mas'ul

Yunus Rajabiy nomidagi
O'zbek milliy musiqa san'ati
instituti rektorining 2024-yil
" 14 " 06 _____ dagi
" 47 " - sonli buyrug'iga
3-ilova

Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti
2024-2025-o'quv yili qabul jarayoni uchun
TEXNIK XODIMLAR RO'YXATI

№	F.I.SH	Lavozimi
1.	Aliyev Doston Rustamjon o'g'li	"O'zbek milliy musiqa san'ati" fakulteti dekan muovini (kunduzgi ta'lim shakliga) mas'ul
2.	Abdupattoyev Saloxiddin Payzullo o'g'li	"Professional ta'lim" fakulteti dekan muovini (kunduzgi ta'lim shakliga) mas'ul
Texnik jihatdan ta'minlash bo'yicha mas'ullar		
1.	Abdujabbarov Jamshid Abduazizovich	RTTM bo'limi boshlig'i, Kasbiy (ijodiy) imtihon jarayonlarini tasvirga olish va videoyozuvlarni saqlash bo'yicha mas'ul
2.	Uchqunov Mohir Shuxrat o'g'li	Raqamli ta'lim texnologiyalar markazi muhandisi, dasturchi
3.	Sobirov Rajabboy Ashirbayevich	Texnik foydalanish va xo'jalik bo'limi boshlig'i, ta'minotchi
4.	Ashuraliyev Hamidulloh Shavkatbek o'g'li	Tizim administrator, ovoz rejessori

Yunus Rajabiy nomidagi
O'zbek milliy musiqa san'ati
instituti rektorining 2024-yil
" 14 " 06 dagi
" 47 " - sonli buyrug'iga
4-ilova

**Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati institutining
2024-2025-o'quv yili qabul jarayoni uchun
MASLAHAT XONASI, MUROJAATLAR MARKAZI (call-center)
XODIMLARI TARKIBI**

№	F.I.SH	Lavozimi	Biriktirilgan ish telefon raqami	Uyali telefon raqami
1.	Sattorov Jasurbek Xoshimjon o'g'li	"O'zbek milliy musiqa san'ati" fakulteti tyutori	+99871 237-05-54	+99890 272-14-71
2.	Isaqov Abrorbek Odiljon o'g'li	"Professional ta'lim" fakulteti dekan muovini	+99871 237-05-54	+99894 643-22-08

Yunus Rajabiy nomidagi
O'zbek milliy musiqa san'ati
instituti rektorining 2024-yil
" 14 " 06 dagi
" 47 " - sonli buyrug'iga
5-ilova

**Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa sana'ati institutining
2024-2025-o'quv yili qabul jarayoni uchun
KONSULTATSIYA XONALARIGA BIRIKTIRILGAN XODIMLARI TARKIBI**

№	Ta'lim yo'nalishi	F.I.SH	Lavozimi	Uyali telefon raqami
1.	Vokal san'ati (an'anaviy xonandalik)	Ruzmatov Erkinbay Orzimatovich	"Maqom xonandaligi" kafedrasi professori (O'zbekiston xalq hofizi)	(90) 185-70-93
		Matyakubov Shavkat Batirovich	"Maqom xonandaligi" kafedrasi dotsenti	(91) 153-37-66
		Vaisov Mansur Egamberganovich	"Maqom xonandaligi" kafedrasi katta o'qituvchi	(97) 728-17-79
		Ayubov Kabil Zaidovich	"Maqom xonandaligi" kafedrasi katta o'qituvchi	(99) 814-09-18
2.	Cholg'u ijrochiligi (an'anaviy cholg'ular)	Maxmudova Farangiz Nuridin qizi	"Maqom cholg'u ijrochiligi" kafedrasi o'qituvchi	(90) 349-53-43
		Toshpo'latova Ikbol Sobirjanovna	"Maqom cholg'u ijrochiligi" kafedrasi dotsent	(90) 347-69-47
		Abduazimov Ravshan Abduganiyevich	"Maqom cholg'u ijrochiligi" kafedrasi dotsent	(90) 960-41-14
		Xalilov Marufjon Abbosovich	"Vokal cholg'u ijrochiligi pedagoglari" kafedrasi katta o'qituvchi	(93) 256-28-55
3.	San'atshunoslik (musiqashunoslik)	Shamshiyeva Barno Nig'matxo'jayevna	"O'zbek maqomi tarixi va nazariyasi" kafedrasi o'qituvchi	(93) 597-59-95
		Abdusamatova Gulxumor Abdufattoyevna	"O'zbek maqomi tarixi va nazariyasi" kafedrasi o'qituvchisi.	(99) 322-73-90
4.	Xalq ijodiyoti (baxshichilik va dostonchilik)	Norov Ilhom Ashurovich	"Doston ijrochiligi" kafedrasi o'qituvchi	(95) 844-08-00
		Saburova Injigul Jumabayevna	"Doston ijrochiligi" kafedrasi o'qituvchi	(93) 362-05-07
5.	Bastakorlik san'ati	Xandamyay Viktor Sergeyevich	"Kompozitorlik, bastakorlik va umumiy fortepiano" kafedrasi dotsenti	(90) 990-15-43
		Safarov Akmal Umar o'g'li	"Kompozitorlik, bastakorlik va umumiy fortepiano" kafedrasi o'qituvchisi	(97) 722-48-13

Izoh: Zarur bo'lganda qabul komissiyasi tarkibiga o'zgartirish kiritilishi mumkin.